



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

1(9)
2024





ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№1(9) 2024

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 - tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

6	Elov Ziyodullo Sattorovich. Zoʻravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar toifasi psixologiyasi.....	241
	Olimov Laziz Yarashovich, Roziqova Munisa Fazliddinovna. Sud va tergov jarayonida psixolog kompetentligining namoyon boʻlishi.....	245
	Останов Шухрат Шарифович. Социально-психологические особенности деструктивного поведения у подростков.....	253
	Рустамов Шавкат Шухратович. Социально-психологические механизмы формирования инновационной психологической компетентности у учащихся.....	257
	Dilbar Matchanova Yusupbayevna. Internetga qaramlik xulq-atvor buzilishi sifatida	261
	Habibullayev Ubaydulloxon. Jismoniy tarbiya oʻqituvchisining individual-psixologik xususiyatlarini rivojlantirish.....	267
	Qalandarova Bonu Shermamat qizi. Deviant xulqli oʻsmirlarda emotsional soha namoyon boʻlishining psixologik xususiyatlari	271
	Sabirova Karomat Sadullayevna. Gerontopsixologiya muammolariga doir dolzarb tadqiqotlar	276
	Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna. Oʻsmirlar tasavvurida stressogen taʼsirlarning psixologik tahlili.....	281

Olimov Laziz Yarashovich
Buxoro davlat universiteti
psixologiya va sotsiologiya kafedrasida dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Roziqova Munisa Fazliddinovna
Buxoro davlat universiteti
psixologiya ta'lim yo'nalishi talabasi

SUD VA TERGOV JARAYONIDA PSIXOLOG KOMPETENTLIGINING NAMOYON BO'LISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada sud psixolog eksperti faoliyatida ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash, sud psixolog ekspertidagi kommunikativ, emotsional va shaxslilik komponentlarining namoyon bo'lishi va rivojlanishini tadqiq qilish; sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirishda ularning sud-huquq tizimi bilan bog'liqligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: sud psixolog eksperti, ijtimoiy-psixologik kompetentligi, sud psixologik ekspertizasi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik.

ДЕМОНСТРАЦИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПСИХОЛОГА В СУДЕБНОМ И СЛЕДСТВЕННОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается исследование проявления и развития факторов социально-психологической компетентности в деятельности судебного психолога и совершенствование ее конкретных социально-психологических факторов, выявление компонентов, исследование проявления и развития коммуникативных, эмоциональных и личностных компоненты судебного психолога; в развитии социально-психологической компетентности судебных психологов раскрывается их связь с правовой системой.

Ключевые слова: судебный психолог-эксперт, социально-психологическая компетентность, судебно-психологическая экспертиза, профессиональная компетентность, компетентность, личность эксперта, профессиональная деятельность.

DEMONSTRATION OF THE PSYCHOLOGIST'S COMPETENCE IN THE COURT AND INVESTIGATION PROCESS

Abstract. This article discusses the study of the manifestation and development of factors of socio-psychological competence in the activities of a forensic psychologist and the improvement of its specific socio-psychological factors, the identification of components, the study of the manifestation and development of communicative, emotional and personal components of a forensic psychologist; in the development of socio-psychological competence of forensic psychologists, their connection with the legal system is revealed.

Key words: forensic psychologist-expert, socio-psychological competence, forensic psychological examination, professional competence, competence, personality of an expert, emotional intelligence, professional activity.

Kirish. Sud va tergov jarayonida psixologning mutaxassis va sud psixolog eksperti sifatidagi kompetentligini o'rganish bo'yicha olib borilgan kuzatishlarimiz va tadqiqot muammosiga aloqador bo'lgan fundamental adabiyotlar tahlili psixolog kompetentligi muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlarning qarashlariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Psixologning mutaxassis va sud psixolog eksperti sifatidagi kasbiy kompetentligi deganda - ularning shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladiki, bunda yetarlicha yuqori darajada amaliy kasbiy faoliyat, kasbiy muomalani amalga oshira olishi nazarda tutiladi. Ayni paytda, psixologning kasbiy kompetentligi uning kasbiy bilim va malakalari, boshqa bir tomondan esa kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatlari mutanosibli bilan baholanishi mumkin.

Jahonda sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentligining psixologik jihatlarini o'rganish, ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish omillarini tadqiq etish, sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentlik ko'rsatkichlarini baholash, ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirishga mo'ljallangan maxsus tizimlashtirilgan psixologik usullar majmuini ishlab chiqish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Sud psixolog ekspertlarining kasbiy faoliyatiga psixologik tayyorgarlik darajasini takomillashtirish, ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va mexanizmlarini aniqlash, sud psixolog ekspertlarining kasbiy tayyorgarlik rolini oshirish va ularning faoliyat samaradorligiga ta'siri masalasini aniqlash alohida tadqiqot muammosi sanaladi.

Respublikamizda so'nggi yillarda sudlov va huquq-tartibot organlari faoliyati samaradorligini oshirish, sud psixolog ekspertlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.

"Sud ekspertizasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida sud ekspertizasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish borasida muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu qonunda ko'rsatib o'tilgan bunday muhim vazifalarni bajarishda sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirishga oid tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirish, ularning shaxsiy sifatlariga xos bo'gan xususiyatlarni ro'yobga chiqarish, psixokorreksion va rivojlantiruvchi usullar orqali ularning kasbiy faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini shakllantirish dolzarb muammo sifatida qaraladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Sud psixologik ekspertizaga huquqiy holatlarni aniqlash vazifasi yuklanib, faqatgina ko'rsatmalar haqiqiylikigina tekshirish emas, balki ularni isbotlash, qonunbuzarlikni sodir etgan shaxs hatti-harakatlarida aybdorlikni aniqlash vositasi sifatida mustahkamligini tekshirish ham kiritilganligini ko'rishimiz mumkin. Garchi bunga asos bo'lmasa ham, qandaydir ishonchsizlik haligacha ham oxirigacha bartaraf etilmagan. Aksincha, qonuniy sud ishida mukammallashib borayotgan amaliyotning, o'sib borayotgan ehtiyojlari sharoitida, zamonaviy psixologiya fanining imkoniyatlariga yetarlicha baho bera olmaslik o'rindidir.

Sudga oid psixologik ekspertizaga doir tadqiqotlarda sud psixolog eksperti faoliyatiga aloqador turli jihatlarini, xususan: K.Marbe psixolog jinoiy va fuqarolik ishlarda ekspert sifatidagi ishtiroki, V.Shtern sud psixolog ekspertining jinsiy jinoyat ishlari yuzasidan yosh guvohlar ko'rsatmalarini baholash va ekspertiza qilinayotganlarning aqliy qobiliyatlarni aniqlashning psixologik usullarini, G.Gross esa kriminal psixologiya sohasiga doir ekspertiza o'tkazish mexanizmlarini ochib bergan.

M. Grodzinskiy "Guvohlar ko'rsatmalaridagi bir xil xatolar", Ya.Kantarovich "Guvohlik ko'rsatmalarining psixologiyasi", A.Luriya "Jinoyat izlarini aniqlashda psixologiya", G.Volkova "Jinoiy huquq va refleksologiya", V.Vnukova va A.Brusilovskiy "Voyaga yetmagan va yoshi kichik guvohlik ko'rsatmalarining psixologiyasi va psixopatologiyasi" asarlarda shaxs va ayblanuvchi psixologiyasi, guvohlik ko'rsatmalari bo'yicha sud psixologik ekspertizani o'tkazish texnikasi va uslubini asoslab berilgan.

Guvohlik ko'rsatmalarini tadqiq etish sohasida psixologik ekspertiza o'tkazish va boshqa muammolar bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshirilib, psixolog A.Luriya tomonidan 1927-yilda Moskva guberniya prokuraturasi qoshida tashkil qilingan amaliy psixologiya laboratoriyasida jadal tadqiqot ishlari olib borilgan. U yerda psixologik ekspertiza imkoniyatlarini kengaytirish va jinoyatlarni ochish uchun amaliy psixologiya usullarini qo'llash imkoniyatlari o'rganib chiqilgan [3].

Ta'kidlash joizki, amaliy psixologiyada yuridik amaliyot ehtiyojlari uchun uning qo'llanilishi asosan jinoiy jarayon ishtirokchilari ko'rsatmalarining haqiqiylikini aniqlash metodikalarini ishlab chiqish uchun qo'llanilgan. T.V.Saxnova yozishicha, bir tomondan qonunbuzar shaxsini o'rganib chiqishga e'tibor kuchayishidan darak bergan (ilgari u faqat qonunbuzarning o'zini o'rganilishida to'xtalgan), bu esa o'z navbatida, ob'ektiv va sub'ektiv tomonlarni inobatga olgan holda sodir etilgan qonunbuzarlikka aniq va to'g'ri baho berishga imkon bergan. Boshqa tomondan esa, jarayon (sodir etilgan holat) ishtirokchilarining ko'rsatmalarini haqiqiy ekanligini isbotlash uchun, ekspert sud yoki tergov jarayonida berilgan ma'lumotlar qay darajada haqiqiy ekanligini aniqlash bo'yicha vazifani o'z zimmasiga yuklatadi [5].

T.V.Saxnovaning fikricha, ekspertiza doirasida shaxsga tashxis qo'yish orqali haqiqatni aniqlash uchun qo'llanilgan. Respondentning erkin hikoyasi (o'zi bilan sodir bo'lgan holat yoki hodisa to'g'risida bildirgan fikrlari, yoki ko'rsatuvlari) va ekspert bergan savollarning javoblari asosida, ob'ektiv u yoki bu shaxs tipi bilan shartlangan, yolg'on belgilari mavjudligi (yoki mavjud emasligi) haqida xulosa qilinadi. Taxmin qilinishicha, sovuqqon, xo'mraygan va yopiq odamlar oldindan uylab qo'ygan yolg'onni aytishga tayyor bo'lishadi. Shuning uchun u bergan ko'rsatmalar ahamiyatli emas, deb baholash mumkin. Bajarilmagan istak-xohishlar majmui mavjud bo'lgan shaxsning ko'rsatmalari ham to'la haqiqiy deb tan olinmasligi mumkin, biroq boshqa sabablariga ko'ra: sub'ekt boshqalar nigohida o'z mavqeiga ega bo'lishi uchun, istaklarini qiziq tarzda amalga oshiradi. Bu turdagi ekspertizalar voyaga yetmagan guvohlarga nisbatan samaralidir. Bu borada shuni ta'kidlash joizki, o'sha paytda ishonchli, ilmiy asoslangan shaxsni tadqiq etish bo'yicha metodikalar ishlab chiqilmagan edi, shu tufayli ekspert vazifasini ob'ektiv tarzda hal etish imkoni bo'lmagan [5].

O'rganish jarayonida keltirilgan vajlarning haqiqiylikini aniqlash ekspertizaning asosiy kamchiligi sifatida bundan iborat bo'lmagan. Ko'rsatmalarining haqiqiylikini haqida savolga javob berayotganda, ekspert-psixolog o'zining maxsus bilimlari chegarasidan, jarayondan tashqari, o'z kompetensiyasi doirasidan chiqib ketgan va sud kompetensiyasi chegaralariga kirgan. Rivojlanishining birinchi bosqichida sud ekspertizasi imkoniyatlariga kompetensiyasidan ortiqcha baho berish, ehtimol qonuniydir, chunki amaliy psixologiya darajasi yuridik amaliyot ehtiyojlaridan ancha orqada qolgan edi. Bu esa o'z navbatida vazifalarni noto'g'ri, xato belgilashga va ularni yechish uchun vositalarni noadekvat tanlashga olib kelar edi.

Sud psixologik ekspertizaga huquqiy holatlarni aniqlash vazifasi yuklanib, faqatgina ko'rsatmalar haqiqiylikinigina tekshirish emas, balki ularni isbotlash, qonunbuzarlikni sodir etgan shaxs hatti-harakatlarida aybdorlikni aniqlash vositasi sifatida mustahkamligini tekshirish ham kiritilganligini ko'rishimiz mumkin. Garchi bunga asos bo'lmasa ham, qandaydir ishonchsizlik haligacha ham oxirigacha bartaraf etilmagan. Aksincha, qonuniy sud ishida mukammallashib borayotgan amaliyotning, o'sib borayotgan ehtiyojlari sharoitida, zamonaviy psixologiya fanining imkoniyatlariga yetarlicha baho bera olmaslik o'rinlidir.

Olimlarning jiddiy tadqiqot ishlari (xususan, A.R.Luriya, M.M.Kochenov, A.R.Ratinov, V.L.Vasilev, V.F.Pirojkov, A.V.Dulov, V.F.Yengalichev, S.S.Shipshin va boshqalarning) jinoiy va fuqarolik ishlari bo'yicha sud jarayonlarining maqsadlariga nisbatan sifatli darajada psixologik vazifalarni qo'yish va hal etish imkonini beradi.

S.S.Shipshin va V.F.Engalichevlar yozganidek, sud ekspertizasi tushunchasining asosiy belgilari quyidagilar:

a) sud psixologik ekspertizaning tayyorlanishi, tayinlanishi va o'tkazilishi maxsus huquqiy reglamentga muvofiq amalga oshiriladi, u muvofiq jarayondagi ekspertning va ekspertizani tayinlaydigan shaxsning huquq va majburiyatlarini aniqlash bilan birga, bu borada ayblanuvchi (gumonlanuvchi)ning haq-huquqlarini ham aniqlaydi;

b) maxsus psixologik bilimlarni qo'llash asosida tadqiqotni o'tkazish;

c) isbotlar manbai mavqeiga ega bo'lgan xulosani berish. Jinoiy ish yuritilishida ekspertizaning asosiy mazmuni, jinoyatlarning dastlabki tergov jarayoni uchun yoki sudda jinoiy ishlarni ko'rib chiqish uchun ahamiyatga ega bo'lgan, yangi faktlarni aniqlash maqsadida ma'lum

ma'lumotlarni tadqiq etishdan iborat. Sud psixologik ekspertiza huquqni muhofaza qilish organlarining amaliyotida keng qo'llaniladi. Sud ekspertizasining boshqa turlari kabi u o'zining aniq maqsadlari va vazifalariga ega ekanligini qayd etish lozim.

Sud psixologik ekspertizasining asosiy maqsadi, yuridik psixologiya yoki amaliyotda to'planib, ishlab chiqilgan aniq ma'lumotlar asosida tadqiqotni o'tkazish va tergovchi, aniqlash organi yoki sud tomonidan qo'yilgan savollarga javob berishdan iborat bo'ladi. Ekspert o'zining xulosasi bilan sud va tergovchiga ish holatlarini aniqlashda, ularga yuridik baho bermay turib, yordam beradi.

V.V.Romanov ta'kidlaganidek, "Sud psixologik ekspertizaning asosiy maqsadi sud va dastlabki tergov organlariga jinoiy ishlar bo'yicha isbotlash predmeti tarkibiga kiruvchi psixologik mazmunga ega maxsus savollarni yanada chuqurroq tadqiq etishda yordam berish, jinoiy ishlar predmeti esa fuqarolik bahslarini isbotlash predmetining tarkibiy elementi, qonunda aks ettirilgan bir qator huquqiy tushunchalarning psixologik mazmunini tadqiq etishda ko'maklashishdan iborat.

M.V.Kostitskiy fikricha, sud psixologik ekspertizasining maqsadi – qabul qilingan qaroriga, sodir etilgan harakatiga, ularning samaradorligiga, ifodalangan yo'nalishiga, ularning haqiqiy va istiqbolidagi sifatiga manfaatdor bo'lmagan holda ob'ektiv baho olishga zaruriyatdir; to'qnashuv, bahs uning predmetiga ob'ektiv, adolatli va qat'iy baho berish qobiliyati, psixologik bilimlar yordamida mavjud bo'lgan masalalarni yechishdan iborat.

Sudga oid psixologik ekspertizaning asosiy vazifalari o'rganish ob'ekti va o'tkazilayotgan ekspertizaning qaysi turga mansubligidan kelib chiqib belgilanadi. A.O.Ekmenchi sudga oid psixologik ekspertizasining vazifalariga: guvoh, jabrlanuvchi, gumonlanuvchi va sudlanuvchilar harakatlarining psixologik motivatsiyasi; uning psixologik sabablari yuzasidan o'zini ayblashi yoki ayblash imkoniyatini, undagi psixologik yoki fiziologik affekt mavjudligini baholash; sudlanuvchining shaxsiysifatiga va uning holat yuzasidan taqdim qilayotgan ko'rsatmalariga psixologik tomonlariga adekvat baho berish; sodir bo'lgan jarayondagi voyaga yetmagan ishtirokchilarning o'ziga xos psixologiyasi kabi masalalarni kiritgan [5].

Yu.M.Groshova sud psixologik ekspertizasining vazifalariga, qattiq ruhiy xavotirlanishning davom etishi va og'irligini aniqlashni, insonga noqulay omillarning uzoq va intensiv ta'sir etish spetsifikasi va uning harakatlarida (fiziologik va psixologik) o'zgarishlarning namoyon bo'lishini tadqiq etish, hamda noqulay tashqi omillar natijasida, voyaga yetmagan ayblanuvchining aqliy rivojlanishidagi qoloqlikni aniqlash, ish uchun ahamiyatli bo'lgan hollarni voyaga yetmagan tomonidan to'g'ri baholash va qabul qila olishning sub'ektiv imkoniyatini aniqlash, deb biladi.

B.Petelinning sud psixologik ekspertizasiga bag'ishlagan bir qator asarlarida ta'kidlashicha, sud psixologik ekspertizasining vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin: fiziologik affektni aniqlash; voyaga yetmaganning ruhiy xastaligi bilan emas, balki uni psixikasining shakllanish xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan, aqliy rivojlanish darajasini aniqlash; shaxsga xos bo'lgan emotsional reaksiyalar shakli orqali jarayon qatnashchilari kognitiv faoliyatining individual xususiyatlarini aniqlash; ekstremal vaziyatlarda shaxs xulq-atvorini tushunish uchun shaxsning psixologik xususiyatlar majmuini baholash; ishni to'g'ri ko'rib chiqish uchun ahamiyatli bo'lgan individual psixologik xususiyatlarning umumiy psixologik xarakteristikasini berish; guvohlar va voyaga yetmaganlarning voqea va uning alohida holatlarini to'g'ri idrok qilish qobiliyatini aniqlash; voyaga yetmaganning fantaziyasi, kuchli ta'sirlanish, bunday voyaga yetmaganlar kognitiv jarayonlarining individual xususiyatlarini aniqlash; sudlanuvchi shaxsining (psixik sog'lom) psixik xususiyatlarini aniqlash va voyaga yetmagan tomonidan sodir etilgan qonunbuzarlikning psixologik mexanizmiga ularning ta'siri kabilar. Shubhasiz, psixologiyaning rivojlanishi bilan psixologik ekspertiza yo'li bilan hal etadigan vazifalar doirasi yanada kengayadi, albatta yuridik me'yorlar belgilangan chegaralarigacha amalga oshiriladi. Bizningcha, muallifning mazkur ta'rifida o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillar tizimiga alohida e'tibor qaratadi [7].

Keyingi ishlarida M.M.Kochenov sud psixologik ekspertiza vakolatiga oid masalalar doirasini kengaytirib, ushbu ekspertiza quyidagilarni: ayblanuvchi, guvoh va jabrlanuvchining qobiliyatini (individual psixologik va yosh xususiyatlarini), ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni to'g'ri idrok etish va ular bo'yicha to'g'ri ko'rsatuv berish; jinsiy jinoyatlar

qurbonlarining ular bilan sodir etilgan harakatlarining mohiyati va ahamiyatini to'g'ri idrok etish qobiliyati; ruhiy kasallik bilan bog'liq bo'lmagan aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan voyaga yetmagan sudlanuvchilarning o'z harakatlarining ahamiyatini to'liq anglash va ularga yo'naltirish qobiliyati; qonunga xilof hatti-harakatlar sodir etish vaqtida sub'ektda fiziologik ta'sir holatining mavjudligi yoki yo'qligi (affekt); kasbiy funksiyalarni normal bajarishga to'sqinlik qiluvchi turli xil psixik hodisalarning paydo bo'lish ehtimoli; o'limdan oldingi davrda odamda o'z joniga qasd qilishga moyil bo'lgan ruhiy holatning mavjudligi yoki yo'qligini aniqlashi mumkin, deb hisoblaydi. Keyinchalik, olim yuqoridagi ro'yxatga sub'ektning hatti-harakatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan individual-psixologik xususiyatlarning tashxisini (masalan, taklifning kuchayishi, impulsivlik, taqlid qilish, qattiqlik va boshqalar); inson hatti-harakati uchun yetakchi, o'rnatilgan motivlarning mavjudligini va shaxsni tavsiflovchi muhim psixologik holatlar sifatida aniq harakatlar uchun motivatsiyani aniqlashni qo'shadi.

S.N.Enikolopovning fikricha, sud-psixologik ekspertiza kompetensiyasi ruhiy holatlarni (doimiy yoki uzoq davom etadigan stress; ekzistensial umidsizlik, tajovuz va boshqalar) baholashni o'z ichiga oladi.

N.R.Osipova tahlil qilinayotgan ekspertiza vakolatiga voyaga yetmagan guvohning aqliy rivojlanishini hisobga olgan holda, uning ko'z o'ngida sodir bo'lgan voqeaning mohiyatini tushuna oladimi yoki yo'qligini aniqlashga ishora qiladi.

Umuman olganda, sud psixolog ekspertining sudga doir psixologik ekspertizasi yuzasidan vakolatlari to'g'risidagi yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lishi sifatli sudga oid psixologik ekspertizalarni o'tkazish uchun juda muhimdir.

Natijalar. Endi bevosita sud psixolog ekspertlari kasbiy kompetentligi namoyon etilishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlashda V.A.Melnikov, L.Ya.Yampolskiylarning «Psixodiagnostik test» metodikasi asosida olingan natijalar tahliliga o'tamiz.


1-jadval. Sud psixolog ekspertlari kasbiy kompetentligi namoyon etilishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ko'rsatkichlari (V.A.Melnikov, L.Ya.Yampolskiylarning «Psixodiagnostik test» metodikasi bo'yicha)

t/r	Omillar	Ko'rsatkichlar	uch yillik ish stajga ega bo'lgan ekspertlar n ₁ =130			uch yildan ortiq ish stajga ega bo'lgan ekspertlar n ₁ =130		
			soni	M	S	soni	M	S
1	Nevrotizm	quyi	26	1,27	1,90	23	1,41	1,36
		o'rta	72	4,34	3,87	83	5,17	2,04
		yuqori	32	8,41	3,57	24	7,15	2,18
2	Psixotizm	quyi	28	1,74	1,38	18	1,32	1,45
		o'rta	68	4,19	2,60	83	5,31	1,81
		yuqori	34	7,09	2,93	29	7,52	2,23
3	Depressiya	quyi	31	1,25	3,56	26	1,43	1,29
		o'rta	73	5,41	1,86	85	5,47	2,14
		yuqori	26	8,32	3,10	19	7,65	1,16
4	Vijdonlilik	quyi	38	1,15	1,31	29	1,35	1,03
		o'rta	48	4,83	2,96	43	5,84	2,64
		yuqori	44	9,42	3,29	58	8,84	1,62
5	Turg'unlashganlik	quyi	39	1,34	1,14	29	1,37	1,23
		o'rta	64	4,18	2,34	89	5,15	1,96
		yuqori	27	8,5	3,21	12	7,72	3,08
6	Umumiy faollik	quyi	31	1,08	1,00	23	1,40	1,86
		o'rta	45	4,82	3,28	36	5,12	2,05
		yuqori	54	9,12	3,11	49	7,73	1,09
7	Tobelik	quyi	47	1,87	2,90	55	1,34	1,23
		o'rta	56	4,51	3,49	58	5,07	2,03

		yuqori	27	8,48	2,92	17	8,37	1,08
8	Muomalaga kirishimlilik	quyi	32	1,37	3,65	26	1,41	2,09
		o'rt	55	4,73	3,90	67	5,02	2,23
		yuqori	43	8,79	3,94	37	8,35	1,78
9	Estetik taassurotchanlik	quyi	49	1,8	4,03	56	1,52	1,06
		o'rt	63	5,01	3,45	48	5,24	3,02
		yuqori	38	8,59	3,62	26	8,24	1,88
10	Nazokatlilik	quyi	29	1,27	3,58	26	1,43	2,12
		o'rt	70	4,63	3,11	75	5,11	2,53
		yuqori	31	8,22	3,89	29	7,91	1,53

Izoh: quyi (1-2 ball), o'rt (3-6 ball), yuqori (7-10 ball).

M – O'rtacha arifmetik qiymat. S – Standart og'ish



1-rasm. Sud psixolog ekspertlari kasbiy kompetentligi namoyon etilishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ko'rsatkichlari

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, aniqlovchi tajribada metodikaning 10 ta asosiy omillari bo'yicha quyidagi natijalar qo'lga kiritildi:

Nevrotizm omili bo'yicha uch yillik ish stajga ega bo'lgan ekspertlarning 26 nafarida quyi (M=1,27; S=1,90), 72 nafarida o'rt (M=4,34; S=3,87), 32 nafarida yuqori (M=8,41; S=3,57) ko'rsatkich namoyon bo'lgan bo'lsa, uch yildan ortiq ish stajga ega bo'lgan ekspertlarning 23 nafarida quyi (M=1,41; S=1,36), 83 nafarida o'rt (M=5,17; S=3,87), 24 nafarida yuqori (M=7,15; S=2,18) ko'rsatkichni namoyon qildi. Quyi ko'rsatkichdagi ekspertlarda xursandchilik, energiyaga boyligi bilan xarakterlanadi, o'z kuchiga ishonadi. Faollikni yoqtiradi va tadbirlarda ishtirok etadi va qat'iyatli. Biroq, bu tez-tez olib boradigan impulsivlik bilan tavsiflanadi, va'dalarni bajarishga kabilarni ko'rishimiz mumkin. Bu omil yuzasidan o'rt ko'rsatkichni qo'lga kiritgan xodmlarda juda kuchli irodali shaxs ekanligi, ammo u jiddiy qiyinchiliklar bilan to'qnashuvda umidsizlikka tushishi, o'z-o'ziga ishonchini yo'qotish ustunlik qilsada, kerak bo'lsa, tashabbuskor va qat'iyatlilikni ko'rsatadi. O'zini qadrlaydi, o'zi va'da qilsa bajarishga harakat qiladi va bunga qodirligi bilan ahamiyat kasb etadi. Yuqori ball to'plagan ekspertlar tirishqoq, vijdonli va mas'uliyatli. Juda nochor, qarorlarida o'ziga ishonmaydi. O'ziga xos xususiyati – o'jarlik, ruhiy tushkunlik, ko'ngilsizlik va xiralik. Shu bilan birga begonalashishning tashqi ko'rinishi va noqulaylikni kuchli his qiladi.

Psixotizm omili bo'yicha uch yillik ish stajga ega bo'lgan ekspertlarning 34 nafarida yuqori (M=7,09; S=2,93) ko'rsatkich namoyon bo'lgan bo'lsa, uch yildan ortiq ish stajga ega bo'lgan ekspertlarning 29 nafarida yuqori (M=7,52; S=2,23) ko'rsatkichni namoyon qildi. Bunday ekspertlar yuqori zo'riqish va qo'zhaluvchanlikni ifodalaydi. O'zining shaxsiy nufuziga haddan

ortiq g'amxo'r, tanqid va ogohlantirishlarni og'riqli qabul qiladi. Egoist, o'zidan o'zi minnatdor bo'lish va o'zi haqida mulohazalash bilan ajralib turadi.

Depressiya omili bo'yicha uch yillik ish stajga ega bo'lgan ekspertlarning 26 nafarida yuqori ($M=8,32$; $S=3,10$) ko'rsatkich namoyon bo'lgan bo'lsa, uch yildan ortiq ish stajga ega bo'lgan ekspertlarning 19 nafarida yuqori ($M=7,65$; $S=1,16$) ko'rsatkichni namoyon qildi. Bunday ekspertlar tirishqoq, vijdonli va mas'uliyatli. Juda nochor, qarorlarida o'ziga ishonmaydi. O'ziga xos xususiyati – o'jarlik, ruhiy tushkunlik, ko'ngilsizlik va xiralik. Shu bilan birga begonalashishning tashqi ko'rinishi va noqulaylikni kuchli his qilishi bilan ajralib turadi.

Vijdonlilik omili bo'yicha uch yillik ish stajga ega bo'lgan ekspertlarning 38 nafarida past ($M=1,15$; $S=1,31$) ko'rsatkich namoyon bo'lgan bo'lsa, uch yildan ortiq ish stajga ega bo'lgan ekspertlarning 29 nafarida past ($M=1,35$; $S=1,03$) ko'rsatkichni namoyon qildi. Bunday ekspertlar odatda hamma narsaga yengil qaraydi, beparvo va ma'uliyatsiz. Ko'pincha o'z vazifalarini bajarishga e'tiborsiz, qonunlar va ma'naviy normalarga rioya qilmaslik bilan ajralib turadi.

Turg'unlashganlik omili bo'yicha uch yillik ish stajga ega bo'lgan ekspertlarning 27 nafarida yuqori ($M=8,50$; $S=3,21$) ko'rsatkich namoyon bo'lgan bo'lsa, uch yildan ortiq ish stajga ega bo'lgan ekspertlarning 12 nafarida yuqori ($M=7,72$; $S=3,08$) ko'rsatkichni namoyon qildi. Bunday ekspertlar impulsiv va cheklovsiz, o'zini ushlab tutolmaydi yoki istamaydi, o'z istaklarini qondirishga harakat qiladi.

Umumiy faoliyat omili bo'yicha uch yillik ish stajga ega bo'lgan ekspertlarning 31 nafarida past ($M=1,08$; $S=1,00$) ko'rsatkich namoyon bo'lgan bo'lsa, uch yildan ortiq ish stajga ega bo'lgan ekspertlarning 23 nafarida past ($M=1,40$; $S=1,86$) ko'rsatkichni namoyon qildi. Bunday ekspertlar passiv, tashabbuskor emas, yetarli energiyaga ega emas. U sekinlik bilan (nutqda, harakatlarda) va kam harakatligi bilan ajralib turadi. Ular o'tirib ishlaydigan ishlarni va monoton ishlarni afzal ko'radi. Yutuqlar va muvaffaqiyatlarga intilish mavjud emas. Ko'pincha ishda qo'shimcha mas'uliyatlardan qochadi, mas'uliyatni o'z zimmasiga olsa ham, uni boshqa odamlarning yelkasiga yuklab qo'yadi.

Tobelik omili bo'yicha uch yillik ish stajga ega bo'lgan ekspertlarning 27 nafarida yuqori ($M=8,48$; $S=2,92$) ko'rsatkich namoyon bo'lgan bo'lsa, uch yildan ortiq ish stajga ega bo'lgan ekspertlarning 17 nafarida yuqori ($M=8,37$; $S=1,08$) ko'rsatkichni namoyon qildi. Bunday ekspertlar uyatchan, kutilmagan vaziyatlardan qochadi. Kutilmagan tadbirlarda o'zini noqulay his qiladi. Muloqotda kam gap va uyatchan, odatda e'tiborni tortmaydi va hech narsaga aralashmaydi. Tanishlari va do'stlari doirasi tor bo'lishini afzal ko'radi.

Muloqotmandlik omili bo'yicha uch yillik ish stajga ega bo'lgan ekspertlarning 32 nafarida past ($M=1,37$; $S=3,65$) ko'rsatkich namoyon bo'lgan bo'lsa, uch yildan ortiq ish stajga ega bo'lgan ekspertlarning 26 nafarida past ($M=1,41$; $S=2,09$) ko'rsatkichni namoyon qildi. Bunday ekspertlar odamlar bilan hissiy jihatdan yaqinlashishdan qochadi.

Estetik taassurotchanlik omili bo'yicha uch yillik ish stajga ega bo'lgan ekspertlarning 38 nafarida yuqori ($M=8,59$; $S=3,62$) ko'rsatkich namoyon bo'lgan bo'lsa, uch yildan ortiq ish stajga ega bo'lgan ekspertlarning 26 nafarida yuqori ($M=8,24$; $S=1,88$) ko'rsatkichni namoyon qildi. Bunday ekspertlar tasavvuri boy, fantaziyasi kuchli, samimiy hissiyotlarni yoqtiradi. Harakatlarida mas'uliyat hissi yo'q va qarorlarida reallik va aqlli idrok bilan qaramaydi, mantiq va voqealarni hisobga olishdan ko'ra ko'proq o'z hissiyotlariga ishonadi.

Nazokatlilik omili bo'yicha uch yillik ish stajga ega bo'lgan ekspertlarning 31 nafarida yuqori ($M=8,22$; $S=3,89$) ko'rsatkich namoyon bo'lgan bo'lsa, uch yildan ortiq ish stajga ega bo'lgan ekspertlarning 29 nafarida yuqori ($M=7,91$; $S=1,53$) ko'rsatkichni namoyon qildi. Bunday ekspertlar sezgir, qayg'uga chidamli, muloyim, egiluvchan, soddaligi bilan xarakterlanadi. U fantaziya va estetik maqsadlariga erishishga intililadi. Ko'pincha shaxsiy muammolar bilan band bo'ladi, o'zini o'zi tahlil va tanqid qilishga moyil.

Xulosa. Shaxsning kasbiy rivojlanishi bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan psixologik xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgan psixotexnika, hamda o'quv modulining samaradorligini baholashda aniqlovchi va nazorat tajribalaridan olingan natijalarning tahlillariga asoslanib, qolaversa, sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish dasturi

va uni sud psixolog ekspertlarining kasbiy faoliyatiga ta'siri natijasini tadqiq qilish bo'yicha quyidagilar aniqlandi:

1. Sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega va ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish dasturida sud psixologik ekspertizasiga doir psixologik vaziyatlar va shaxslararo munosabatlar tizimining ta'sirchan mexanizmlariga alohida e'tibor qaratildi.

2. Kasbiy kompetentlikning rivojlantirish bo'yicha o'quv modulini amalda qo'llash natijasida qator samaradorlikka erishildi, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillariga aloqador bo'lgan kasbiy kompetentlik (kasbiy layoqat)ning o'ziga xos tarzda o'zgarganligini ko'rsatadi. O'quv modulida sud psixolog eksperti kasbiy kompetentligini ta'minlovchi sohaga oid qonun va qonun osti hujjatlari yuzasidan huquqiy, hamda psixodiagnostik ishlarni amalga qo'llay olishi, sud psixologik ekspertiza xulosasini rasmiylashtirish bo'yicha bilimdonligini oshirishga erishildi.

4. Sud psixologik ekspertisasi ishlarida faoliyat olib boradigan ekspertlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi omillarini namoyon etilishi va rivojlanishi masalasini chuqurroq tahlil qilish uchun kelgusida ijtimoiy-psixologik kompetentlikning ekspertlik faoliyatiga tayyorlik darajasi bilan bog'liqlik tomonlarini tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Glassman A. H., Shapiro P.A., Depression and the course of coronary artery disease. Am J Psychiatry. 1998. – P. 4-11.
2. Gmott H.G. between Parent and Children. N.Y., 2003. P – 219.
3. Golniiz G., Schulz-Wulf G. Rhythmisches psychomotorische Musiktherapie. Yena, 2004.- 112 p.
4. Mehrinian A. An analysis of personality theories. – Englewood Cliffs. N.J.: Prentice – Hall, 2004. – p. 240.
5. Olimov L.Ya. [Psixodiagnostika va psixometrika asoslari](#). Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
6. Reynolds C.K., Gutkin T.B. School Psychology: Essentials of theory and Practice – IV.V., 1984.
7. Satir V. The new peoplemaking. – California: Science and Behavior Books, Inc., Mountain View, 2003. - 400 p.
8. Еникеев М. И. Юридическая психология: с основами общей и социальной психологии: учебник для вузов. М.: Норма: ИНФРА-М, 2017. 640 с.
9. Еникеев М.И. Основы общей и юридической психологии. – М., 1996. – С. 130–131.
10. Ениколопов С.М. Проблемы судебно-психологической экспертизы личности // Сб. Вопросы судебно-психологической экспертизы. 1978.
11. Костицкий М.В. Судебно-психологическая экспертиза.— Львов:1987.
12. Махмудова Х.Т. Правовые основы судебно-психологических экспертиз в Республике Узбекистан // Педагогик таълим. – № 5. – Т., 2011. – С. 6–11.
13. Махмудова Х.Т. Судебно-психологические параметры, имеющие отношение к юридически значимому поведению по статьям Гражданского кодекса Республики Узбекистан / Бюллетень Верховного суда Республики Узбекистан. – №6, 2012. – С. 54–56.
14. Махмудова Х.Т. Юридическое значение - феномена фрустратсии // Журнал “Право: теория и практика”. – № 11–12 (148-149). – М., 2011. – С. 65–69
15. Махмудова Х.Т. Опыт развития юридической психологии как науки // Халк таълими. – №1. – Т., 2011. – С. 145–151.